

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**OTASHIN SHOIR, TARJIMON VA DRAMATURG USMON NOSIR TAVALLUDINING 110 YILLIGINI  
KENG NISHONLASH TO'G'RISIDA**

O'zining betakror iste'dodi, yuksak matonati va xalqparvarligi bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lган otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir xalqimizning mashhur farzandlaridan biridir. Uning ezgu insoniy fazilatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat, kelajakka yuksak ishonch tuyg'usi bilan yo'g'rilgan yetuk badiiy asarlarining xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasidagi beqiyos o'rni va ahamiyatini hisobga olib hamda shoir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash va xotirasini abadiylashtirish maqsadida:

1. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Madaniyat vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda jamoatchilik vakillarining 2022-yilda Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2. Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi (keyingi o'rnlarda — Tashkiliy qo'mita) [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Tashkiliy qo'mita (A.N. Aripov) bir oy muddatda Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi dasturni, uni moliyalashtirishning aniq manbalarini belgilagan holda ishlab chiqsin va tasdiqlasin:

Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini mamlakatimizda adabiyot va san'at bayrami sifatida keng nishonlash;

Usmon Nosirning hayoti va faoliyatini, xususan, uning qatag'on davrida kechgan yillarini o'rganish, hozirga qadar noma'lum bo'lib kelayotgan qo'lyozma asarlarining taqdiri haqida ma'lumotlar to'plash maqsadida tarixchi olimlar va ijodkorlardan iborat ishchi guruhi tuzish hamda uning O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, shuningdek, Rossiya Federatsiyasidagi tegishli arxiv materiallari bilan tanishishi uchun sharoit yaratish;

Namangan shahrida Usmon Nosir haykalini o'rnatish;

Toshkent va Namangan shaharlaridagi ko'chalarga Usmon Nosir nomini berish;

Usmon Nosirning "Tanlangan asarlar" to'plami hamda "Usmon Nosir zamondoshlari xotirasida" kitobini nashr etish;

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida O'zbekiston Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda "Zamonaviy o'zbek adabiyoti rivojida Usmon Nosir ijodiy merosining o'rni va ahamiyati" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazish;

Usmon Nosirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida hujjalni film suratga olish, spektakllar sahnalashtirish, musiqa asarlari va qo'shiqlar, Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida turkum materiallar e'lon qilish;

umumiyl o'rta ta'lim muassasalari, ijod maktablari o'quvchilari o'rtasida Usmon Nosir hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Unutmas meni bog'im" mavzuida insholar tanlovinci o'tkazish;

mamlakatimizdagi ta'lim tashkilotlari, harbiy qismlar, mehnat jamoalari va mahallalarda taniqli adib va olimlar, san'atkorlar ishtirokida Usmon Nosir ijodiga bag'ishlangan uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda kitobxonlik kechalarini tashkil etish;

2022-yil noyabr oyining ikkinchi o'n kunligida O'zbek Milliy akademik drama teatrida Usmon Nosir tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan adabiy-badiiy xotira kechasini o'tkazish.

4. Tashkiliy qo'mita (A.N. Aripov)ga Usmon Nosir tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarni yuksak saviyada tashkil etish, mazkur qaror va chora-tadbirlar dasturining o'z vaqtida,